



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 25-fevral, № 38 (9209)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI BELARUS BOSH VAZIRINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo'lib turgan
Belarus Respublikasi Bosh vaziri Aleksandr Turchinni qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston – Belarus ko'p qirrali sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Hamkorlik, ayniqsa, savdo-iqtisodiy sohada yuqori darajaga ko'tarilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O'tgan yili tovar ayirboshlash 25 foizga o'sib, qariyb 1 milliard dollarga yetdi. Yetakchi kompaniyalarning ustuvor tarmoqlardagi kooperatsiyasi kengayib bormoqda.

Mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi

hamda boshqa sohalarida qo'shma loyihalarni ilgari surish orqali iqtisodiy hamkorlikning yangi kun tartibini shakllantirish muhim ekanini ta'kidlandi.

Shuningdek, hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvlarni faollashtirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

NAVQIRON AVLODNING TASHABBUS VA INTILISHLARI DOIMIIY QO'LLAB-QUVVATLANADI

Ko'ksaroy qarorgohida 24-fevral kuni
Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan muloqoti bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi studiyalar orqali 60 mingdan ziyod yoshlar vakillari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari yig'ilganlarni samimiy qutlab, yurtimizdagi 22 milliondan ziyod yoshlarimiz juda katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuch ekanini ta'kidladi.

Barcha darajadagi rahbarlar yoshlarni til va kasb-hunarga o'rgatish, sportga jalb etish, g'oya, loyiha hamda startaplariga ko'mak berish, ularni ishli va daromadli qilish bo'yicha yanada faol ishlashi, birorta yigit-qizni e'tiborsiz qoldirmasligi zarurligi qayd etildi.

Yillar davomida yaratilgan imkoniyatlar natijasida yoshlarimiz jahon fan olimpiadalarida 66 ta oltin, 147 ta kumush, 221 ta bronza medalini qo'lga kiritdi. Garvard, Yel, Prinston, Kolumbiya, Kornell kabi nufuzli oliygohlarda tahsil olayotgan talaba yoshlarimiz 500 nafardan, "TOP – 100" talikdagi oliygohlarda o'qiyotgan yigit-qizlarimiz 3,5 ming nafardan oshdi. Yoshlarimiz yaratgan 63 ta startap loyihasi AQSH, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va Birlashgan Arab Amirliklari bozorlariga kirib borgan.

Yosh sportchilarimiz xalqaro arenalarda 720 ta oltin, 671 ta kumush, 854 ta bronza medalining sohibi bo'ldi. Bugun yosh tadbirkorlar yurtimizdagi biznes vakillarining 35 foizini tashkil etmoqda.

Shu ma'noda, O'zbekiston Yoshlar taraqqiyoti global indeksida eng tez sur'atlarda rivojlanayotgan davlat deb e'tirof etilgani bejiz emas. Joriy yilda Toshkent shahrida Jahon yoshlarining

tinchlik sari harakati bosh qarorgohi tashkil etilishi, Samarqand shahrida Yoshlar parlamenti a'zolarining 12-global konferensiyasi, "Take Off" xalqaro startap sammiti va 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi o'tkazilishi bu maqomni yanada mustahkamlaydi.

Davlatimiz rahbari har yili 600 ming yosh mehnat bozoriga kirib kelayotgani, 2030-yilga borib bu ko'rsatkich 1 millionga yetishini qayd etib, yoshlarga o'z imkoniyati va qiziqishiga mos ish topishi uchun sharoit yaratish eng muhim masala ekanini ko'rsatib o'tdi.

Yoshlar o'rntasidagi so'rovnomana natijasiga ko'ra, ularning uchdan biri tadbirkor bo'lish istagini bildirgan.

O'tgan yili yoshlar bandligini ta'minlash uchun banklar va Yoshlar ishlari agentligiga 400 million dollar yo'naltirilgani, "Yoshlar biznesi" va "Kelajakka qadam" dasturlari hisobidan 15 ming nafar yosh o'z tadbirkorligini yo'lga qo'yib, 50 ming kishini ish bilan ta'minlagani ta'kidlandi.

Bu ishlarning davomi sifatida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha 200 million dollar ajratilishi e'lon qilindi.

Bunda moliyalashtirish imkoniyatlari kengaytiriladi: o'zini o'zi band qilgan yoshlar uchun kredit miqdori 100 million so'mdan 300 million so'mgacha oshiriladi. Yosh tadbirkorlarning loyihalari uchun 10 milliard so'mgacha kredit ajratish mumkin bo'ladi. Innovatsion startap loyihalariga 100 ming dollargacha investitsiya kiritishga ruxsat beriladi. Servis va umumiy

ovqatlanish sohasida 1 mingdan ziyod ish o'rinlari yaratgan mahalliy brendlardan franshiza olib, filial ochishga qiziqqan yoshlar uchun qulay moliyalashtirish paketlari joriy qilinadi.

Joriy yildan "Kelajak tadbirkori" dasturi ishga tushirilib, yosh tadbirkorlarga 7 yil muddatgacha 15 foizli kredit ajratish yo'lga qo'yiladi. Xususan, o'zini o'zi band qilgan yoshlarga garovsiz 20 million so'mgacha, tadbirkorlik ko'nikmasiga ega bo'lib biznes boshlayotganlarga 300 million so'mgacha, faoliyatini kengaytirmoqchi bo'lganlarga 2 milliard so'mgacha, kamida 5 nafar bitiruvchini ishga olgan tadbirkorlarga esa 10 milliard so'mgacha kredit berilishi belgilandi.

Shuningdek, tadbirkorlikni endi boshlayotgan yoshlarning 30 foizi biznes ko'nikmasi yetishmasligi sabab qiyinchilikka uchrayotgani qayd etildi. Shu bois har bir hududda tadbirkorlikka o'qitish, g'oyani biznesga aylantirish, buxgalteriya, bank, marketing, ichki va tashqi bozorlarga chiqish bo'yicha kompleks xizmat ko'rsatadigan "Yoshlar biznes inkubatori" tashkil etiladi.

Nufuzli xorijiy oliygohlar ilg'or tajribalar asosida yoshlarni tadbirkorlikka o'qitishda hamkorlik qilishga tayyor ekanini qayd etilib, kamida 40 ming yoshni biznesga o'rgatadigan "Yangi avlod tadbirkorlari" dasturini boshlash belgilandi. Dasturni muvaffaqiyatli tugatgan eng yaxshi 1 ming nafar yoshning loyihasiga uch yil muddatga 200 million so'mgacha 7 foizli ssuda beriladi.



Senat qo'mitalarida

OMBUDSMAN FAOLIYATIGA BAHO BERILDI

Parlament yuqori palatasining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi hamda Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining qo'shma majlisida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) ning 2025-yildagi faoliyati to'g'risidagi ma'ruzasi muhokamaga tortildi.

Senatorlar ta'kidlaganidek, o'tgan yilda Ombudsman kelib tushgan murojaatlar soni 2024-yildagiga qaraganda 12,6 foiz oshgan. Ularning 32,3 foizi iqtisodiy muammolar yuzasidan yo'llangan va ushbu mazmundagi murojaatlar o'tgan yil bilan taqqoslaganda 26,3 foiz ko'paygan.

Hududlar kesimida eng ko'p murojaat Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hamda Toshkent shahriga to'g'ri keladi.

Takroriy murojaatlar soni 2024-yildagiga nisbatan 1,1 foiz kamaygan. Parlament nazorati subyekti sifatida Ombudsman tomonidan nazoratga olingan murojaatlarning 26 foizi ijobiy hal qilingan.

2025-yilda 194 ta ta'sir chorasi qo'llanilgan, shundan 36 ta taqdimnoma, 24 ta xulosa, 12 ta talabnoma, 4 ta ogohlantirish hamda 118 ta ariza va da'vo arizasi kiritilgan bo'lib, ularning 82 foiziga ijobiy yechim topilgan.



TA'SIRCHAN VA SAMARALI HIMOYA MEXANIZMI

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi majlisida parlamentning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2025-yildagi faoliyati to'g'risidagi ma'ruzasi eshitildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda Ombudsman institutining o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Kelib tushayotgan murojaatlar, ko'rib chiqilgan masalalar ko'lami va ular bo'yicha erishilgan natijalar shundan darak berib turibdi. Bu esa Ombudsman instituti aholi uchun ta'sirchan himoya mexanizmiga aylanib borayotganini ko'rsatmoqda.



Munosabat

YUKSAK PARVOZ VA YUTUQLARNING MUSTAHKAM ASOSI

Ko'ksaroy qarorgohida Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuv doirasida mamlakatimizda navqiron avlodni qo'llab-quvvatlash, ularning kasb-hunar va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish borasida qator muhim tashabbuslarni e'lon qildi.

Prezidentimiz O'zbekiston yoshlar taraqqiyoti global indeksida eng tez sur'atlarda rivojlanayotgan davlat sifatida e'tirof etilganini ta'kidlab, bu boradagi ishlarda jahon tajribasi va innovatsiyalarni keng qo'llash zarurligini aytdi.

Shu munosabat bilan, Toshkent shahrida Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati bosh qarorgohi ochilishi, Samarqand Yoshlar parlamenti a'zolarining 12-global konferensiyasiga, "Take Off" xalqaro

startap sammiti va 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga mezbonlik qilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, Prezident mamlakatda har haftaning payshanbasi "Yoshlar kuni" etib belgilanishini, bu sanada vazirlik, idora va hokimlik rahbarlarining mahalla, maktab va texnikumlarga borib, yoshlarning muammo va takliflarini tinglab, ularga yechim topishi lozimligini e'lon qildi.



YOSHLAR TADBIRKORLIGI RAO'BATLANTIRILADI

Mamlakatimizda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar tizimli davom ettiriladi.

Fakt va raqamlar

Jumladan,
2026
-yilda:

– o'zini o'zi band qilgan yigit-qizlar uchun kredit miqdori **100 million** so'mdan **300 million** so'mgacha oshiriladi;

– yosh tadbirkorlarning loyihalari uchun **10 milliard** so'mgacha kredit ajratish mumkin bo'ladi;

– innovatsion startap loyihalariga **100 ming** dollargacha investitsiya kiritishga ruxsat beriladi.

Shu bilan birga, servis va umumiy ovqatlanish tarmog'ida 1 mingdan ziyod ish o'rinlari yaratgan mahalliy brendlardan franshiza olib, filial ochishga qiziqqan yoshlar uchun qulay moliyalashtirish paketlari joriy qilinadi.

YANGI O'ZBEKISTONNING ENG KATTA STRATEGIK RESURSI

Dunyo bugun keskin demografik burilish davrini boshdan kechirmoqda. Rivojlangan davlatlarda tug'ilish darajasi pasayib, mehnat resurslari qisqarib borayotgan bir paytda rivojlanayotgan mamlakatlarda yoshlar soni misli ko'rilmagan darajada ortmoqda.

Jahon banki prognoziga ko'ra, yaqin 10 – 15 yil ichida rivojlanayotgan davlatlarda 1,2 milliard nafar yosh mehnat bozoriga kirib keladi. Aynan shu jarayonlar fonida Prezidentimiz tomonidan aytilgan fikr alohida ahamiyat kasb etadi: "Yurtimizdagi 22 milliondan ziyod yoshlarimiz timsolida biz juda katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuchni ko'ramiz".

Bu oddiy statistika emas. Bu davlat strategiyasi, uzoq muddatli taraqqiyot konsepsiyasi va milliy xavfsizlik omilidir. Chunki XXI asrda davlatlarning qudrati faqat tabiiy resurslari yoki sanoat quvvatlari bilan emas, balki inson kapitali, ayniqsa, yoshlar salohiyati bilan belgilanmoqda.

Bugun ko'plab rivojlangan mamlakatlar aholining qarishi muammasiga duch kelmoqda.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

BOLALAR MANFAATLARI USTUVORLIGI VA HAYOTIY MASALALAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda Bolalar ombudsmanining 2025-yildagi bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka davlat organlari tomonidan rioya etilishi holati haqidagi ma'ruzasi ko'rib chiqildi. Ov qilish va ovchilik xo'jaliklari faoliyatini, shuningdek, yong'in xavfsizligi tizimini takomillashtirishga, sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirishga oid qonun loyihalari ham qizg'in muhokamadan o'tkazildi.

Vakilning ma'ruzasi ko'rib chiqildi

Majlisda dastlab Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani)ning 2025-yildagi bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka davlat organlari tomonidan rioya etilishi holati haqidagi ma'ruzasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini

ta'minlash, uning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Prezidentimiz rahbarligida bolalar farovonligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida tarixiy islohotlar amalga oshirildi.



NAVQIRON AVLODNING TASHABBUS VA INTILISHLARI DOIMIIY QOʻLLAB-QUVVATLANADI

➡ Har yili “Yosh tadbirkorlar” tanlovi oʻtkazilib, eng yaxshi 100 ta loyihani brendga aylantirish uchun “Yoshlar venchurs” jamgʻarmasidan 1 milliard soʻmgacha mablagʻ ajratiladi.

Joriy yil 1-martidan yangi ish boshlayotgan yosh tadbirkorlarga infratuzilmaga ulanish bilan bogʻliq davlat xizmatlarining xarajatlari Yoshlar tadbirkorligi jamgʻarmasi hisobidan qoplab beriladi.

Ijtimoiy tashabbuslar boʻyicha “Fikringni ber (Voice Up)” inklyuziv oromgohi tajribasi kengaytirilib, uni har bir hududda oʻtkazish va 1 ming nafar yoshni qamrab olish, eng yaxshi tashabbuslar ishtirokida Samarqand shahrida Xalqaro inklyuziv yoshlar oromgohini tashkil etish vazifasi belgilandi.

“Oʻsish va rivojlanish (Upshift)” loyihasi doirasida bu yil media, dizayn, hunarmandchilik, ishlab chiqarish va innovatsiya yoʻnalishlarida ham tanlov oʻtkaziladi. Eng yaxshi 40 ta startapni moliyalashtirish uchun 2 milliard soʻm ajratiladi.

Texnikumlarda taʼlim dasturlarini ish beruvchilar talabi asosida yangilash, dual taʼlimning qamrovini kengaytirish, moddiy-texnik bazani yaxshilash boʻyicha vazifalar belgilandi.

Texnikumlarga ham oliygohlar kabi “spin-off” ochishga ruxsat berilib, oʻquvchilarning startap loyihalariga 1 milliard soʻmgacha ajratiladi. Joriy yildan texnikum oʻquvchilari uchun ham “Ishla va sayohat qil (Work and travel)” dasturi asosida 6 oy xorijda ishlab, qoʻshimcha daromad topish imkoniyati yaratiladi, ishtirokchilarga yoʻlkira xarajatlari uchun ssuda ajratiladi.

Xorijiy til sertifikatiga ega yoshlarni qoʻllab-quvvatlash mexanizmi samara bergani taʼkidlanib, sertifikat olgan yoshlar 600 mingdan oshgani, xorijiy tillarni mukammal biladigan 72 ming instruktor shakllangani aytiladi. Xususiy oʻquv markazlarining soni 3 karra koʻpayib, 38 mingdan oshgan.

Xususiy oʻquv markazlari uyushmasini tashkil etish tashabbusi qoʻllab-quvvatlanib, uyushma aʼzosi boʻlgan markazlarga binosini ijaraga bergan tadbirkorlar ijaradan olinadigan daromad va foyda soligʻini toʻlashdan ozod etiladi. Bunday markazlar oʻqituvchilarini ilgʻor taʼlim markazlariga stajirovkaga yuborish amaliyoti yoʻlga qoʻyiladi.

“Koʻmak” dasturi doirasida olis va chekka hududlarda xorijiy til oʻquv markazlarining faoliyatini kengaytirish

uchun 300 million soʻmgacha foizsiz ssuda beriladi. Olis hududlardagi oʻquv markazlari ijtimoiy soliqni 1 foiz, oʻqituvchilar daromad soligʻini 7,5 foiz miqdorida toʻlaydi (hozir 12 foiz).

Joylarda ehtiyojmand oilalardagi yoshlarni bepul oʻqitadigan oʻquv markazlariga qoʻshimcha imtiyozlar berilishi belgilandi: yer va mol-mulk soligʻidan ozod qilinadi, kommunal xarajatlarning yarmi qoplab beriladi, oʻqituvchilarga toʻlangan daromad soligʻi va ijtimoiy soliq “keshbek” tariqasida qaytariladi.

Volontyorlik faoliyatiga alohida eʼtibor qaratildi. Yurtimizda huquqiy asoslar yaratilgani hisobiga volontyor yoshlar 5 karra koʻpayib, ekologiya, tibbiy xizmat, taʼlim, favqulodda vaziyatlarda koʻmaklashish yoʻnalishlaridagi volontyorlar soni 100 mingdan oshgani aytiladi.

Volontyorlik harakatini rivojlantirish boʻyicha Vasiylik kengashini tuzish, Yoshlar ishlari agentligida Volontyorlikni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasini tashkil etish rejalashtirildi. Jamgʻarmaga har yili byudjetdan 20 milliard soʻm, qoʻshimcha ravishda mahalliy byudjetlardan 3 milliard soʻmdan ajratiladi. Shuning hisobidan

volontyorlik loyihalariga 100 million soʻmgacha grant beriladi, “ijtimoiy faollik kartasi” orqali ball tizimi joriy etiladi.

Yigʻilishda yosh oilalarni qoʻllab-quvvatlash, kitobxonlikni ommalashtirish masalalari ham koʻtarildi.

Yosh oilalar uchun uy-joy ipoteka dasturi doirasida kredit stavkasining 14 foizdan oshgan qismi byudjetdan qoplab berilishi aytiladi.

Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamgʻarmasi orqali eng isteʼdodli yozuvchilarga ijodiy buyurtma berib, bir yil davomida oyiga 20 million soʻmdan haq toʻlash, eng sara xorijiy adabiyotlarni oʻzbek tiliga hamda milliy adabiyotni xorijiy tillarga tarjima qilish va chop etish xarajating yarmini qoplash belgilandi.

Yangi oʻquv yiliga qadar eng yaxshi 100 ta asardan iborat toʻplamni tayyorlab, barcha maktab va texnikumlarga yetkazish, eng faol kitobxon oʻquvchilarni 10 million soʻmdan mukofotlash vazifasi qoʻyildi.

Kutubxona, “book cafe” va kitob doʻkoni ochib, oyiga 10 ming donadan ortiq kitob sotuvini yoʻlga qoʻygan tadbirkorlarga 3 yilga 1 milliard soʻmgacha 7 foizli ssuda berish mexanizmi nazarda tutildi.

Jazoni ijro etish muassasalaridan

qaytgan yoshlarning jamiyatga tez moslashishi uchun “Ikkinchi imkon” loyihasi boshlanishi maʼlum qilindi. Unga koʻra 8 – 12 oylik intensiv kurslarda dasturlash, veb-dizayn, kompyuter muhandisligi, boshqa kasblar va xorijiy tillarga oʻqitish orqali daromadli ishga ega boʻlishiga shart-sharoit yaratiladi.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari yoshlar bilan muloqot qilib, ularning turli sohalarga oid taklif va tashabbuslarini tingladi.

Tadbir davomida mutasaddilarning hisobotlari ham eshitildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Koʻksaroy qarorgohida boʻlib oʻtgan yoshlar bilan muloqot doirasida “Raqamli texnologiyalar yoʻnalishida eng yaxshi startap” – “President Tech Award” loyihasi gʻoliblarining taqdimoti bilan tanishdi.

Mazkur tanlov Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi tomonidan Raqamli texnologiyalar vazirligi koʻmagida 2023-yildan boshlab oʻtkazib kelinmoqda. Uning umumiy mukofot jamgʻarmasi 1 million dollari tashkil etadi.

Tanlovda sunʼiy intellekt, ijtimoiy texnologiyalar, “MicroSaaS” va “AdTech”, moliyaviy texnologiyalar va tadbirkorlik,

oʻyin dasturlari hamda maxsus yoʻnalish – xakaton boʻyicha eng namunalı loyihalar tanlab olindi.

Ilk tashkil etilgan tanlovda toʻrt mingdan ziyod ishtirokchilar qatnashgan boʻlsa, 2025-yilga kelib ishtirokchilarning soni olti mingga yaqinlashdi. Jamoalarning soni esa 444 tadan 862 taga yetdi.

Davlatimiz rahbariga tanlov gʻoliblari oʻzlarining startap loyihaları, ularning afzalliklari va amaliy samarasi xususida soʻzlab berdi.

– Biz kichik startaplar katta-katta loyihalarga, daromadli biznesga aylanishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga tayyormiz. Buning uchun har bir startapchi bilan muloqot qilish, unga kerakli yordamni koʻrsatish lozim, – dedi Prezident.

Yoshlarning qiziqishlarini qoʻllab-quvvatlash orqali kelajak kasblariga zamin yaratilayotgani, dunyo davlatlari ham yoshlarning startap loyihalariga alohida qiziqish bildirayotgani taʼkidlandi.

Prezidentimiz startap loyihalarini qoʻllab-quvvatlashga mablagʻlar yanada koʻpaytirilishini aytib, yoshlar oʻzlarining yangicha qarashlari va gʻoyalari bilan yana qaysi soha va yoʻnalishlarda izlanishi kerakligi yuzasidan tavsiyalarini berdi.

OʻzA.

OMBUDSMAN FAOLIYATIGA BAHO BERILDI



➡ Shuningdek, harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan muassasalarga 954 ta monitoring tashrifi amalga oshirilib, suhbatlar tashkil etilgan. “Ombudsman maktabi” loyihasi doirasida respublika boʻylab 124 ta shahar va tumanda

targʻibot tadbirlari uyushtirilgan hamda ommaviy axborot vositalarida 4,7 mingdan ziyod chiqishlar amalga oshirilgan. Bu 2024-yildagiga nisbatan qariyb mingtaga koʻp.

Muhokama jarayonida senatorlar Ombudsmanga taʼsir choralarini qoʻllash samaradorligini oshirish, murojaatlar bilan ishlash sifatini yaxshilash, nazorat va ijro intizomini mustahkamlash, tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish hamda masʼuliyat va hisobdorlikni kuchaytirish boʻyicha tavsiyalar berdi.

Yigʻilishda ushbu masala boʻyicha qoʻmitaning tegishli qarori qabul qilindi.

TAʼSIRCHAN VA SAMARALI HIMOYA MEXANIZMI

➡ Qayd etilganidek, Ombudsmanga 2025-yilda 26 372 ta murojaat kelib tushgan. Ularning 284 tasi fuqarolarning ekologik huquqlari va qonuniy manfaatlariga tegishli. Ushbu murojaatlarning 48 tasi parlament nazorati subyekti sifatida Ombudsman tomonidan alohida nazoratga olinib, atroflicha oʻrganilgan.

Murojaatlar mazmuniga koʻra fuqarolarning atrof-muhitga boʻlgan huquqlari, toza ichimlik suvi bilan taʼminlanish, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik, shaharsozlik normalari va qoidalarining buzilishi bilan bogʻliq holatlardan iborat. Ombudsman tomonidan bu borada qonunchilik normalari va qoidalari buzilishining oldini olish choralari koʻrilgan.

Majlisda “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun ham dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Qonun bilan Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi Vazirlar Mahkamasi huzuriga oʻtkazilganligi munosabati bilan “Urugʻchilik toʻgʻrisida”gi va “Oʻzboshimchalik bilan egallab olingan

yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga boʻlgan huquqlarni eʼtirof etish toʻgʻrisida”gi qonunlarga tahriri oʻzgartirishlar kiritilmoqda.

Shuningdek, “Davlat boji toʻgʻrisida”gi Qonunga Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi meva-sabzavotchilik yoʻnalishidagi mahsulot yetishtiruvchi, qayta ishlovchi subyektlar, issiqxona xoʻjaliklari hamda tadbirkorlar manfaatlarini koʻzlab fuqarolik, iqtisodiy va maʼmuriy sudlarga daʼvo-shikoyatlar kiritganda davlat bojini toʻlashdan ozod etilishini nazarda tutadigan oʻzgartirish hamda qoʻshimchalar kiritilmoqda.

Soʻzga chiqqanlarning fikricha, qonunning qabul qilinishi oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash, meva-sabzavotchilik tarmogʻini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, agrar sohadagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining yaxlit tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yakunda koʻrilgan masalalar yuzasidan qoʻmitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

Senator soʻrovi

QAROVSIZ HAYVONLAR MUHOFAZASI QONIQLARLIMI?

Soʻnggi yillarda Toshkent shahrida daydi hayvonlarni muhofaza qilish, saqlash va parvarishlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Fuqarolik jamiyati va faollar oʻz mablagʻlari hisobidan yoki tashabbuslari asosida qarovsiz jonivorlar uchun boshpanalar tashkil etib, ularni parvarishlash, emlash va davolash ishlarini amalga oshirmoqda.

Oʻtkazilgan tahlillar poytaxtda qarovsiz hayvonlarni saqlash va parvarishlash uchun mavjud infratuzilma yetarli emasligini koʻrsatmoqda. Xususan, parvarishxonalar soni va sigʻimi mavjud ehtiyojni toʻliq qoplamaydi. Ayrim hollarda shahar va tuman obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan bunday jonivorlarni ovlash, saqlash hamda oʻlganlarini yoʻq qilish jarayonlarini tashkil etishda kamchiliklar kuzatilmoqda.

Bundan tashqari, ayrim fuqarolar hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda boʻlayotgani jamoatchilikda haqli eʼtiroz uygʻotmoqda.

Mazkur holatlarni inobatga olib Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xoʻjaligi

masalalari va ekologiya qoʻmitasi raisi Anvar Toʻychiyev Toshkent shahar hokimi nomiga senator soʻrovi yubordi.

Unda Toshkent shahrida qarovsiz hayvonlarni saqlash va parvarishlashga moʻljallangan pitomniklar tashkil etish bilan bogʻliq muammolar, mavjud parvarishxonalarning soni va sigʻimi, ushbu sohaga ajratilayotgan mablagʻlar, masʼul idoralar oʻrtasidagi hamkorlik, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari va faollar tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hamda kelgusi rejalr yuzasidan asoslantirilgan maʼlumot taqdim qilish soʻralgan.

“Xalq soʻzi”.

YUKSAK PARVOZ VA YUTUQLARNING MUSTAHKAM ASOSI

➡ Eng faol, iqtidorli va tashabbuskor yoshlar uchun turli tanlovlar, yarmarkalar, grant va moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimi yoʻlga qoʻyiladi.

Davlat rahbarining taʼkidlashicha, Kasbiy taʼlim agentligi va hududlardagi kengashlar faoliyati orqali texnikum va oliygohlarda

“dual taʼlim” tizimi kengaytiriladi. Har oyda “Kasbiy rivojlanish kuni” va mehnat yarmarkalari tashkil etiladi, shuningdek, “Work and Travel” dasturi orqali yoshlar xorijda ishlash va qoʻshimcha daromad topish imkoniyatiga ega boʻladi. “Koʻmak” dasturi orqali olis hududlarda xorijiy tillarni oʻrgatadigan oʻquv markazlari



ochiladi va ularning faoliyati uchun foizsiz ssuda ajratiladi.

Bundan tashqari, mamlakatimiz yetakchisi startap va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, xususiy oʻquv markazlari faoliyatini kengaytirish, yosh oilalarni uy-joy bilan taʼminlash, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va jazo muddatini oʻtagan yoshlarni jamiyatga moslashtirish kabi masalalarda keng qamrovli tashabbuslarni ham eʼlon qildi.

Darhaqiqat, jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini oʻtab boʻlgan yoshlarning ijtimoiy hayotga tez moslashishini taʼminlash muhim masalalardan biri. Shu maqsadda bunday yoshlar 8 – 12 oylik intensiv kurslarda dasturlash, veb-dizayn, kompyuter muhandisligi, boshqa kasblar va xorijiy tillarga oʻqitilib, daromadli ishga ega boʻladi. Mazkur tizim 1-iyundan Navoiy, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida, kelasi yildan esa barcha hududda joriy qilinadi.

PREZIDENTIMIZ SOʻZLARIDAN BALAND RUH OLDIK

Prezidentimizning yoshlar bilan oʻtkazadigan har bir uchrashuvi yurtimizda yoshlarga eʼtiborning ustuvorligini yana bir bor tasdiqlab, ularning taʼlim olishi, tadbirkorlik qilishi, ijtimoiy faoliyati va maʼnaviy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.



Xususan, bu galgi muloqotda taʼkidlanganidek, xorijiy til sertifikatiga olgan yoshlar uchun imtihon va oʻqish xarajatlari qoplanishi yoʻlga qoʻyilgani ularning bilim sifatini oshirish va kasbiy salohiyatini roʻyobga chiqarishda katta samara bergan. Buning natijasida sertifikatga ega yoshlar soni 600 mingdan oshib, 72 mingta yuqori malakali instruktor shakllangan.

Yoki deylik, xususiy oʻquv markazlari soni uch karra oshirilib, 38 mingdan ziyod markazlar tashkil etilgani natijasida bu maskanlarda yosh tadbirkorlar va mutaxassislar uchun zamonaviy bilim va tajriba oʻrtirish imkoniyati yaratilgan. Prezidentimiz yoshlar turli dasturlar orqali

kasbga erishishi va daromadli faoliyat yuritishi taʼminlanishini aytdi. Shu bilan birga, volontyorlik yoʻnalishida huquqiy asoslar etilib, ularning ijtimoiy faolligi, ekologik, taʼlimiy, tibbiy hamda favqulodda yordam ishlariga jalb qilinishi koʻzda tutilmoqda.

Yosh oilalarni qoʻllab-quvvatlash, ularni uy-joy bilan taʼminlash, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va ijodkor yoshlarga grantlar taqdim etish, shuningdek, jamoat ishlariga yoʻnaltirilgan yoshlarni ijtimoiy integratsiya qilish maqsadida “Ikkinchi imkon” dasturi yoʻlga qoʻyilishi ham hayotiy tashabbuslardan boʻldi, desak, ayni haqiqat.

Mamlakat taraqqiyotida Ibrohimjon JOʻRABOYEV, Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi oʻrinbosari.

KENG IMKONIYATLAR ZAMONI

Qaysi mamlakat taraqqiyot yoʻlini tanlasa, islohotlarining barqaror boʻlishini istasa, avvalo, yoshlarga tayanadi – ularga ishonch bildiradi, iqtidorini roʻyobga chiqarish uchun imkoniyat yaratadi. Shu bois davlatimiz rahbari yoshlarga oid davlat siyosatini Yangi Oʻzbekistonda eng ustuvor yoʻnalish sifatida belgilab kelmoqda.

Prezidentimiz har yili navqiron avlod bilan bir necha marotaba uchrashib, ularning taklif va tashabbuslarini tinglab, amaliyotga tatbiq etib kelayotgani – aynan shu siyosatning eng muhim koʻrsatkichi. Yigʻit-qizlarimiz ham oʻz navbatida, bu eʼtibor va ishonchga munosib javob bermoqda.

Yaratilgan imkoniyatlar natijasida ular jahon fan olimpidadlarida 66 ta oltin, 147 ta kumush, 221 ta bronza medalini qoʻlga kiritdi. Garvard, Yel, Prinston, Kolumbiya, Kornell kabi dunyoning nufuzli oliygohlarida tahsil olayotgan yoshlarimiz 500 nafardan oshdi. Bularning barchasi soʻnggi yillarda

Oʻzbekistonda yoshlarga oid olib borilayotgan oqilona siyosatning samarasidir.

Davlatimiz rahbarining mamlakatimiz yoshlari bilan muloqotida ham ertamiz egalarini har tomonlama qoʻllab-quvvatlashga doir muhim yangiliklar tilga olindi. Yangi-yangi tashabbuslar, takliflar ilgari surildi. Xususan, joylarda ehtiyojmand oilalardagi yoshlarni



bepul oʻqitadigan oʻquv markazlariga qoʻshimcha imtiyozlar berilishi ming-minglab yigʻit-qizlarning ayni dillidagi gap boʻldi. Yaʼni yer va mol-mulk soligʻidan ozod qilinishi, kommunal xarajatlarning yarmi qoplab berilishi, oʻqituvchilarga toʻlangan daromad soligʻi va ijtimoiy soliq “keshbek” tariqasida qaytarilishi ular uchun katta imkoniyat va ragʻbat boʻladi.

Qayd etish joizki, axborot xurujlari avj olayotgan bugungi davrda yoshlar oʻrtasida kitobxonlikni ommalashtirish masalasi dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shu maʼnoda, bu yoʻnalishda ishlarni yangi bosqichga olib chiqish uchun Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamgʻarmasi orqali eng isteʼdodli yozuvchilarga ijodiy buyurtma berilishi va bir yil davomida oyiga 20 million soʻmdan haq toʻlanishi eng toʻgʻri va oqilona qaror boʻldi deb oʻylayman.

Eng sara xorijiy adabiyotlarni

oʻzbekchaga, milliy adabiyotlarni xorijiy tillarga tarjima qilish va chop etish xarajating yarmi qoplanishi ham milliy maʼnaviyatimizni boyitish, kitob bozorini kengaytirish hamda oʻzbek adabiyotini dunyoga olib chiqish uchun katta ragʻbat boʻladi.

Umuman olganda, muloqotdagi ustuvor yoʻnalishlar bitta maqsadga xizmat qiladi: har bir yosh uchun taʼlim, kasb, ish, daromad va kelajak kafolatini yaratish. Biz, deputatlar bu tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash holda joylarda real natija berishi, har bir hududda “yoshlar uchun imkoniyat” amalda ishlashi uchun bu boradagi harakatlar ustidan parlament nazoratini kuchaytirishimiz lozim boʻladi.

Shahnoza XOLMAHAMATOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

BOLALAR MANFAATLARI USTUVORLIGI VA HAYOTIY MASALALAR



Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada bolaning huquq va manfaatlarini ta'minlash kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan yangi normalar kiritildi. Jumladan, Bosh qomusimizda bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha kafolatlar kuchaytirilib, bu borada davlatning ijtimoiy majburiyatlari kengaytirildi.

2025-yilda bola huquqlari va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan 6 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8 ta farmoni va 6 ta qarori qabul qilindi. Mamlakatimiz bolalarni zo'ravonlikdan himoyalashga qaratilgan global tashabbus – Bogota harakatlar chaqiruviga qo'shildi hamda Bolalarga nisbatan zo'ravonlikka chek qo'yish bo'yicha global alyans a'zosi bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 24-dekabrda farmoni bilan 2026 – 2030-yillarga mo'ljallangan Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasi qabul qilindi. Mazkur hujjat doirasida bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarining oldini olish, xavf ostidagi bolalar bilan erta bosqichda ishlash, bolalar va ularning oilalariga ijtimoiy, psixologik, ta'lim va huquqiy xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilandi.

Prezidentimizning 2021-yil 9-avgustdagi farmoniga muvofiq ta'sis etilgan Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) bolalar murojaatlarini ko'rib chiqish, ularning buzilgan huquqlarini tiklash hamda bola manfaatlarini ta'minlanishi ijrosini monitoring qilishda mustaqil milliy institut sifatida alohida o'rin tutib kelyapti.

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to'g'risida”gi Qonunning qabul qilinishi esa bu borada muhim huquqiy poydevor yaratdi. Bugungi kunda Bolalar ombudsmani mazkur qonunga asosan davlat organlari, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshirmoqda.

Bolalar ombudsmani ma'ruzasiga ko'ra, 2025-yilda Bola huquqlari bo'yicha vakil nomiga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy davlatlar fuqarolari va ombudsmanlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslardan 1934 ta murojaat kelib tushgan.

Vakilga bevosita bolalar tomonidan 42 ta murojaat yo'llangan bo'lib, bu jami murojaatlarning 2,17 foizini tashkil etgan. 2025-yilda Bola huquqlari bo'yicha vakilining shaxsiy qabulida 141 nafar fuqaro qabul qilinib, ularning murojaati ko'rib chiqilgan.

Murojaatlar tahlili va monitoring faoliyati asosida bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilishiga yo'l qo'yilgani yuzasidan jami 36 ta ta'sir hujjati – 2 ta ogohlantirish, 6 ta taqdimnoma, 25 ta xulosa va 3 ta sud hujjati ustidan protest keltirish to'g'risida iltimosnoma kiritilgan. Murojaatlarini o'rganish asosida bolalarga nisbatan sodir etilgan zo'ravonlik holatlari yuzasidan 19 ta jinoyat ishi hamda 26 ta ma'muriy ish qo'zg'atilgan.

Shuningdek, o'tgan davrda bolaning moddiy ta'minoti yuzasidan jami 403 mln. 745 ming so'mlik aliment qarzdorligini undirishga ko'maklashilib, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan 52 nafar bolaga davlat boji va boshqa to'lovlaris ID-kartalar rasmiylashtirilishiga amaliy yordam ko'rsatilgan.

20 nafar imkoniyati cheklangan bola esa tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, ularga reabilitatsiya, psixologik-pedagogik korreksiya xizmatlari tashkil etishda ko'maklashilgan. Xorijda ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan 45 nafar bola esa O'zbekiston Respublikasiga qaytarilgan.

O'tgan davrda Bola huquqlari bo'yicha vakil tomonidan bola huquqlari himoyasi yo'nalishida xalqaro

hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha 20 dan ortiq tadbirlar tashkil etilgan. Xususan, O'zbekiston tashabbusiga ko'ra, 2025-yil 11-12-sentabr kunlari birinchi xalqaro forum o'tkazilgan. Ushbu tadbir yakuni bo'yicha mintaqaviy hamkorlikning mustahkam asosi sifatida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston

va O'zbekiston Bolalar ombudsmanlari tomonidan “Markaziy Osiyo davlatlarida bola huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirishning dolzarb yuzasidan o'z munosabatlarini bildirib o'tdi. Munozaralardan so'ng ko'rib chiqilgan masala yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

Deputatlar tomonidan Bola huquqlari bo'yicha vakilning o'tgan yildagi faoliyati yakunlari hamda davlat organlari tomonidan bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etish holati haqida fikr-mulohazalar bildirilib, bola manfaatlarini ta'minlash faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qator tavsiyalar berildi.

Majlisda siyosiy partiyalar fraksiyalari vakillari ham Bolalar ombudsmani ma'ruzasi yuzasidan o'z munosabatlarini bildirib o'tdi. Munozaralardan so'ng ko'rib chiqilgan masala yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

Gavhar OLIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

– *Bolalar ombudsmanining Qonunchilik palatasiga taqdim qilgan ma'ruzasi dastlabki tarzda qo'mitamiz, siyosiy partiyalar fraksiyalari yig'ilishlarida va quyi palataning yalpi majlisida atroflicha ko'rib chiqildi.*

Aytish joizki, so'nggi yillarda Prezidentimiz rahbarligida olib borilayotgan islohotlar va aniq manzilli choralar natijasida davlat organlari faoliyatida bolaning qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasida sezilarli yutuqlarga erishilmoqda.

Bugungi kunda nufuzli xalqaro tashkilotlar ham O'zbekistonda bola huquqlarini ta'minlash masalasida samarali siyosat olib borilayotgani va bu uchinchi Renessansga muhim poydevor bo'layotganini alohida e'tirof etib, ayni yo'nalishdagi tarixiy islohotlarni keng qo'llab-quvvatlamoqda.

Bolalar ombudsmanining bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda samarali institutga aylanib borayotgani hamda uning Qonunchilik palatasi bilan hamkorligi yangi bosqichga ko'tarilgani bolalar manfaatlarini qonunchilik darajasida ta'minlashda muhim o'rinni tutayti.

Bola huquqlari bo'yicha vakil qonun loyihalarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish jarayonida ham faol ishtirok etmoqda. Xususan, bolalar manfaatlariga daxldor normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tahlil qilib, o'z taklif va xulosalarini Qonunchilik palatasi qo'mitalariga taqdim etyapti.

Bolalar ombudsmani va Qonunchilik palatasi o'rtasidagi hamkorlik bolalar manfaatlarini ta'minlashda muhim institutsional mexanizm bo'lib, bu, o'z navbatida, qonunlarning sifatini oshirish, bolalar huquqlarini amaliy himoyaga olish va bu borada mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Surayyo RAHMONOVA,
Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani):

– *Bolalar ombudsmanining asosiy vazifalaridan biri – davlat va jamiyatning barcha bo'g'inlarida bola manfaatlarini ilgari surishdir. Zero, bola huquqlariga oid har bir holat oqilona hal etilishi ortida bolaning kelgusi hayoti, uning farovon kelajagi uchun yuksak mas'uliyat turadi.*

Shu nuqtayi nazardan, faoliyatimiz davomidagi monitoringlar, fuqarolar murojaatlari bilan ishlash, bolalar bilan muloqotlarda ularning fikrlarini o'rganish orqali bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha vaziyatni tizimli tahlil qilib bormoqdamiz. Bola manfaatlari yo'nalishida davlat organlari aynan qaysi muhim nuqtalarga ahamiyat berishi zarurligiga e'tibor qarataypmiz.

Bola manfaatlari himoyasi bo'yicha o'z faoliyatimizni davom ettirgan holda, bolani zo'ravonlikning barcha shakllaridan, jumladan, raqamli tahdidlardan himoya qilish, bolaning fikri va ovozi tinglash, ularni ijtimoiy himoyalash yo'nalishlarini muhim istiqbolli vazifa sifatida belgilaganmiz.

Vasila ALIMOVA,
Bolalar ombudsmanining Toshkent shahridagi mintaqaviy vakili:

– *Prezidentimiz*

tashabbusi asosida Bolalar ombudsmanining tashkil etilishi O'zbekistonda bola huquqlarini himoya qilish tizimini institutsional jihatdan mustahkamlashning muhim bosqichi bo'ldi.

Bolalar ombudsmanining Toshkent shahridagi mintaqaviy vakili sifatida ishimizni hududda davlat organlari tomonidan bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini, bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishi holatini tahlildan o'tkazib kelaypmiz.

Aytish joizki, bola huquqlarining buzilishiga oid murojaatlar soni boshqa viloyatlarga nisbatan ko'proq.

Mintaqaviy vakilning mavjudligi fuqarolar murojaatlarini tezkor ko'rib chiqish va hal etish, murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha mahalliy tashabbuslarni ilgari surish imkonini bermoqda.

Ayni paytda esa hududiy mutasaddi davlat organlarining o'zaro hamkorligini raqamli texnologiyalar asosida tizimli tashkil etish orqali bola huquqlari himoyasi mexanizmlarini yanada takomillashtirish ustida ishlayapmiz.

Ov qilish va ovchilik xo'jaliklari faoliyati takomillashtiriladi

Majlisda deputatlar ov qilish va ovchilik xo'jaliklari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqdi.

Ushbu qonun loyihasi ov qilish va ovchilar tayyorlash tartibini tizimlashtirish, sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ovchilik xo'jaliklarida bioxilmaxillikni saqlash va ko'paytirish, ov turizmi infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan.

Qonun loyihasi bilan “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida”gi, “Qurol to'g'risida”gi hamda “Ov qilish va ovchilik xo'jaligi to'g'risida”gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Xususan, qonun loyihasida ov jarayonlari shaffofligini oshirishga qaratilgan normalar aks etmoqda. Shu bilan birga, ovchilik yo'llanmalari (yovvoyi hayvonlarni tutish kartochkalari)ni berish maxsus elektron dastur orqali amalga oshirilishi, ular asosida mavsumiy yoki bir martalik ov qilish huquqi taqdim etilishi ko'zda tutilmoqda.

Loyiha bilan pitomniklarda yetishtirilgan yovvoyi hayvonlarni ov joylariga qo'yib yuborish amaliyoti qo'llab-quvvatlanib, bunday hayvonlar hisobidan ov qilishni tashkil etishga ruxsat berilishi belgilanmoqda. Mazkur yondashuv ovlash bilan bir vaqtda yovvoyi hayvonlar zaxirasini to'ldirish imkonini beradi.

Odiljon MAMADALIYEV,
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi a'zosi:

– *Qonun*

loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida undagi normalar deputatlar bildirgan taklif va tavsiyalar asosida takomillashtirildi. Qonun loyihasining qabul qilinishi juda muhim. U hayvonot dunyosini muhofaza etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ovchilik madaniyatini oshirish hamda sohani barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Sud hokimiyati organlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy prinsiplari

Majlisda “Sud hokimiyati organlari faoliyatini moliyalashtirish to'g'risida”gi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, mazkur qonun loyihasida sudlar mustaqilligini ta'minlashga oid muhim masalalar – sud hokimiyati organlari faoliyatini moliyalashtirishning umumiy qoidalari, asosiy prinsiplari takomillashtirilmoqda. Shuningdek, moliyalashtirishning manbasi, asosi va o'ziga xos jihatlari aniqlashtirilmoqda.

Xususan, Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun loyihasining sud hokimiyati organlarini moliyalashtirishga oid qismini sud hokimiyati organlari bilan kelishish tartibi hamda ushbu loyihaning Qonunchilik palatasidagi muhokamalarida Oliy sud, Konstitutsiyaviy sud, Sudyalari oliy kengashi va Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti vakillarining ishtiroki nazarda tutilmoqda. Bundan tashqari, sud hokimiyati organlari faoliyati uchun ajratilgan mablag'larni taqsimlash va tasarruf qilish tartiblari aks etmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Yong'in xavfsizligi talablari kuchaytirilmoqda

Majlisda yong'in xavfsizligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda yong'inlarning oldini olish va yong'in xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish, fuqarolar hayoti hamda sog'lig'i, jismoniy va yuridik shaxslar mulkining ishonchli himoya qilinishini ta'minlash imkoniyatini beruvchi yaxlit yong'in xavfsizligi borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayni chog'da amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish, yong'in xavfsizligi sohasida kompleks huquqiy, tashkiliy va profilaktik chora-tadbirlar hamda mexanizmlarni to'liq yaratish, huquqbuzarliklarning oldini olishda preventiv choralarini kuchaytirish zarurati yuzaga kelayotir.

Ushbu qonun loyihasi bilan “Yong'in xavfsizligi to'g'risida”gi Qonunga, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, Jinoyat-protsessual hamda Jinoyat kodekslariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilmoqda.

Binolarning toifasidan kelib chiqib, texnik talablar, xususan, yonuvchan qurilish materiallarini ishlatishni taqiqlash va yong'in natijasida yetkazilgan zararni qoplashdan tashqari aybdordan tovon undirish (tort law) institutini joriy etish nazarda tutilmoqda.

Loyiha bilan obyektlarni yong'in xavfsizligi talablariga mosligi bo'yicha auditdan o'tkazish tartibini yo'lga qo'yish ham belgilanmoqda. Shu bilan birga, mutasaddilarning yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mas'uliyati va shaxsiy javobgarligi oshirilib, loyiha va qurilish-pudrat tashkilotlari, ko'p kvartirali uylarni boshqarish organlarining yong'in xavfsizligi bo'yicha huquq va majburiyatlari aniq belgilab berilyapti. Qonun loyihasi bilan fuqarolarning yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha majburiyatlari doirasi ham kengaytirilmoqda.

Suyultirilgan uglevodorod gazini chakana realizatsiya qilish tartibini buzganlik, yolg'on yoki noto'g'ri auditorlik xulosasini tuzish yoki sertifikatga ega bo'lmasdan auditda ishtirok etganlik uchun javobgarlik mexanizmlari takomillashtirilib, sohada preventiv choralar kuchaytirilmoqda. Qolaversa, shaharsozlik faoliyatida ruxsat berish tartib-taomillariga noqonuniy aralashganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilanyapti.

Qayd etilganidek, qonun loyihasi yong'inlarning oldini olish tizimini takomillashtirish, inson hayoti va sog'lig'ini ishonchli himoya qilish, yong'in xavfsizligi bo'yicha aholi va tashkilotlar mas'uliyatini yanada kuchaytirish, sohada nodavlat sektor ishtirokini kengaytirish hamda yong'in oqibatida yetkaziladigan zararlarni kafolati qoplatishiga qaratilgan.

Majlisda qonun loyihasi qizg'in munozaralarga sabab bo'ldi. Deputatlar ayrim normalar, xususan, nazarda tutilayotgan ko'p kvartirali uylarni boshqarish organlarining yong'in xavfsizligi sohasidagi huquq va majburiyatlari, yong'in audit bilan bog'liq masalalarni qayta ko'rib chiqish bo'yicha o'z munosabatlarini bildirdi. Shuningdek, qonun loyihasini tayyorlashda qonunchilikning ayrim talablariga rioya qilinmagani qayd etilgan holda, uni yanada takomillashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Matbuot xizmati.

YANGILIKLAR xabarlar

TAFSILOTLAR

AERODROM MAXSUS TEXNIKALAR PARKINI YANGILAMOQDA

“Uzbekistan Airports” AJ mamlakat aeroportlarining yer usti infratuzilmasini modernizatsiyalash va texnik jihozlanishini yaxshilashni davom ettirmoqda. Yangilash dasturi doirasida havo kemalariga xizmat ko'rsatish hamda yuk operatsiyalari samaradorligini oshirishga mo'ljallangan 8 ta maxsus aerodrom texnikasi xarid qilindi.



Vazni 150 – 160 tonna bo'lgan havo kemalarini shatakka olish uchun mo'ljallangan “HTM-T150” aviatsiya tyagachlari, yuk ko'tarish quvvati 7 hamda 14 tonnagacha bo'lgan maxsus “WGSJT7” konteyner va pallet ortgichlari shular jumlasiga kiradi. Yangi texnikalar mamlakatimiz aeroportlari o'rtasida taqsimlanadi. Zamonaviy maxsus texnikalarning ishgа tushirilishi havo kemalariga yer usti xizmat ko'rsatish jarayonlarini tezlashtirish, xavfsizlikni oshirish, shuningdek, yo'lovchi va yuk reyslariga xizmat ko'rsatishda aeroportlarning o'tkazish qobiliyatini kengaytirish imkonini beradi.

ZAMONAVIY AVTOBUSLAR – AHOLI XIZMATIDA

Xorazm viloyatida aholiga ko'rsatilayotgan jamoat transporti xizmatlari sifatini yanada yaxshilash maqsadida zamonaviy avtobuslar olib kelish davom ettirilmoqda.



Xususan, Urganch shahridagi “Opel-Trans” MCHJ tomonidan Xitoyda ishlab chiqarilgan “ASIASTAR” rusumli zamonaviy 16 dona avtobus olib kelindi. Mazkur avtobuslar Urganch shahri yo'nalishlari bo'ylab brutto-shartnoma asosida joylashtirilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, viloyatda jamoat transporti xizmatlari sifatini oshirish maqsadida Qo'shko'pir tumanidagi “Zargar Voha Trans” MCHJ 12 dona hamda Xonqa tumanidagi “Asil Javohir Bek” MCHJ tomonidan 5 dona mikroavtobus olib kelindi.

Mazkur mikroavtobuslar shahar atrofi yo'nalishlari bo'ylab xizmat ko'rsatadi.

QUYOSHDAN QUVVAT, SHAMOLDAN KUCH OLIB...

Fransiyaning “Voltalia” kompaniyasi G'ijduvon tumanida gibridda elektr stansiyasini qurish niyatida. Birining qiymati 400 mln., ikkinchisidagi esa 650 mln. AQSH dollari, deya baholangan bu “yashil” loyihalar amalga oshsa, 2 mln. nafardan ziyod aholining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoji to'liq qondiriladi.



Tomonlarning kelishuviga ko'ra, dastlab quyosh elektr stansiyasi va energiya saqlash ombori qurilishi boshlanadi. Shamol stansiyasini barpo etishga esa 2027-yilning uchinchi choragida kirishiladi.

O'zbekiston – Fransiya o'rtasidagi serqirra hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi mazkur ikki inshoot ekologiyaga ziyon yetkazmasligi, innovatsion yechimga ega qayta tiklanadigan energiya loyihasi ekani bilan ham e'tiborga molik. Yaqinda “Voltalia” kompaniyasi mas'ullari Buxoro viloyati mutasaddilari bilan uchrashuvda uzoq muddatli kelishuv doirasida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan fikrlashib oldi.

Bevosita kompaniyaga to'xtaladigan bo'lsak, ma'lumotlarga qaraganda, “Voltalia”ga 2005-yilda asos solingan bo'lib, hozirgi kunda dunyoning 20 ta davlatida yirik loyihalarini amalga oshirmoqda. O'zbekistonda ham o'zining gibridd klasteridan elektr energiya sotish bo'yicha 25 yilga mo'ljallangan shartnoma tuzgan.

“Xalq soʻzi”.

